

BARCHASI SHU YERDAN UA SHU ONDAN BOSHLANADI

UNIVERSITET
GAZETASI

1-son

Gazeta ichida gazeta

TA'LIM ZIYOSI

ANIQ FANLAR TA'LIMIDAGI O'ZGARISHLAR

Chirchiq davlat pedagogika universiteti sayyor Kengashi doirasida "O'zbekiston – 2030" strategiyasida ta'lim tizimi islohotlari ustuvor yo'nalishlardan biri etib belgilangan.

Aniq fanlar fakulteti kafedralari professor-o'qituvchilari, tadqiqotchilari va talabalar o'zlarining turli yo'nalishlardagi loyihalariga universitet faollarining e'tiborini qaratdi. Universitetda matematika, fizika, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, AT kabi sohalarida pedagog mutaxassislar tayyorlashni zamonaviy bosqichga olib chiqish, yangi laboratoriyalar ochish rejaları taqdimot qilindi.

Taqdimot va muhokamalarda universitet rektori, professor G'ofurjon Muxamedov ishtirok etdi.

Kengashda yangi avlod o'qituvchisini shakllantirishda kafedralardagi ta'lim muhiti, integratsiya asosida zamonaviy to'garaklar ochish masalalariga ham to'xtalib o'tildi.

Universitetimiz rahbari qator takliflarni ma'qulladi.



Aniq fanlar ta'limining ilg'or amaliyotlarini o'rganib, fikr almashadigan professional jamoalarni shakllantirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Bugungi tez rivojlanayotgan texnologiyalar va har qanday ma'lumot bir zumda qo'l yetadigan davrda o'qituvchining roli tubdan o'zgarib bormoqda. Endi o'qituvchi shunchaki ma'lumot yetkazuvchi emas, balki bilim olamiga yo'l ko'rsatuvchi, ustoz, ilhomlantiruvchi va kelajak arxitektori sifatida namoyon bo'lmoqda. Yangi avlod o'qituvchisi qanday fazilatlarga ega bo'lishi kerak? U zamonaviy davr chaqiruvlariga qanday moslashishi kerak? Keling, kelajak pedagogining asosiy jihatlarini ko'rib chiqamiz.

INTELLEKTUAL JAMIYAT
ARXITEKTORI

Bugungi o'qituvchi faqat zamonaviy raqamli vositalarni bilishi emas, balki ularni o'quvchilardan ham ilgari va samarali tarzda o'qitish jarayoniga qo'shishni bilishi kerak. Bu har bir yangi trend yoki ilovani mukammal bilish kerak degani emas, lekin o'qituvchi raqamli moslashuvchanlik, yangi vositalarni tez o'zlashtira olish va ularning ta'lim uchun foydasini baholash qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Kelajak o'qituvchisi texnologiyalardan shunchaki foydalanmaydi, balki ularni aniq maqsadlar uchun, pedagogik natijalarga erishish vositasi sifatida qo'llaydi. U virtual haqiqat, sun'iy intellekt, interaktiv platformalar kabi vositalar yordamida o'quv muhitini boyitadi va an'anaviy ta'lim usullarini samarali to'diradi.



MASHINA ASRIDA SUN'IY INTELLEKT

Sun'iy intellekt rivoji ortidan insoniy fazilatlarning qadri yanada oshmoqda. Sun'iy intellekt ya'ni o'zi va boshqalarning his-tuyg'ularini anglash va boshqarish kelajak o'qituvchisining eng muhim qobiliyatlaridan biriga aylanadi.

Zamonaviy pedagog har bir o'quvchi o'zini qadrlangan va tushunilgan deb his qiladigan xavfsiz muhit yaratishi kerak. U bolalarda nafaqat aql, balki hissiy savodxonlik, empatiya, muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi. Aynan mana shunday "yumshoq" ko'nikmalar doimo talabda bo'ladi, texnologiyalar qanchalik rivojlansa ham.

TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH SARI

Endilikda, ma'lumotlar tez yangilanadigan va eskiradigan dunyoda asosiy maqsad ma'lum bir hajmdagi bilim emas, balki tafakkurni shakllantirishdir. Tanqidiy, tizimli, dizayn-tafakkur, axborotni tahlil qilish va noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish – ertangi ta'lim asosini ana shu ko'nikmalar tashkil etadi.

Bunday o'qituvchi tayyor javob bermaydi, balki savol berishni, muammolar yechimini topishda yo'l ko'rsatadi. U bolalarni faqat faktlarni yodlashga emas, balki ular orasidagi bog'liqlikni ko'rishga, sabab-natijalarni aniqlashga, gipotezani ilgari surib, uni sinab ko'rishga o'rgatadi.

O'qituvchi endi haqiqat tashuvchisi emas, balki o'quvchilar bilan birga izlanadigan tadqiqotchiga aylanadi.

INDIVIDUALLASHTIRISH – ASOSIY TAMOIYIL

Sanoat inqilobi zamonidan qolgan "hamma uchun bir xil" ta'lim endi o'tmishga aylanmoqda. Kelajak o'qituvchisi har bir bola o'ziga xos va takrorlanmasligini, har kimning rivojlanish tezligi, o'qish uslubi, qiziqishi va iste'dodi borligini yaxshi anglaydi.

Yangi avlod pedagogi raqamli texnologiya va ma'lumotlar tahlili asosida har bir o'quvchi uchun alohida ta'lim yo'nalishini tanlay oladi va uning salohiyatini to'liq namoyon qilishga yordam beradi. Bunda texnologiyalar o'qituvchini oddiy ishlaridan xalos qilib, unga o'quvchilar bilan jonli ijodiy muloqot uchun ko'proq vaqt beradi.

UZLUKSIZ RIVOJLANISH – HAYOT TARZI

Kelajak o'qituvchisi doimiy o'quvchi. U o'z ta'limi hech qachon tugamasligini anglaydi. Bilim va texnologiyalar tez o'zgarayotgan davrda pedagog doimo yangi bilimlarni o'rganib borishi, o'z ustida ishlashi va yangi tajribalarga hayotga tatbiq etishi zarur.

Bunday ustoz nimanidir bilmasligini tan olishdan uyalmaydi, hamkasblaridan, boshqa soha vakillaridan va hatto o'z o'quvchilaridan ham o'rganishga tayyor bo'ladi. U o'z kasbining ilg'or amaliyotlarini o'rganib, fikr almashadigan professional jamoalarning faol ishtirokchisiga aylanadi. Uning uchun uzluksiz rivojlanish tashqi talab emas, ichki ehtiyojga aylanadi.

Bugungi globallashuv davrida o'qituvchi keng dunyoqarashga va madaniy tafovutlarni hurmat qilishga intiladi. U o'quvchilarni nafaqat o'z yurti, balki dunyo fuqarosi sifatida ham tarbiyalaydi, ularni turli madaniyat va qarashlarni qadrlashga o'rgatadi.

Bunday pedagog har bir o'quvchiga o'zligini topishda, muloqot va murosa qilish, global qadriyatlarni anglash va hurmat qilish ko'nikmalarini singdiradi.

O'QITUVCHI – KELAJAK ARXITEKTORI

Kelajak o'qituvchisi shunchaki bilim beruvchi emas, balki jamiyatning intellektual arxitektori. U nafaqat o'quvchilarning ongi, balki qalbini ham tarbiyalaydi, ularni axloqiy barkamol, mustaqil fikrlaydigan, tez o'zgarayotgan dunyoda to'g'ri va mas'uliyatli qaror qabul qiladigan inson bo'lib voyaga yetkazadi.

Bunday o'qituvchi o'z zimmasidagi mas'uliyat ulkanligini yaxshi anglaydi. Chunki u jamiyatning eng bebaho boyligi inson salohiyati bilan ishlaydi. Har bir o'quvchi o'z imkoniyatini ro'yobga chiqarishda o'qituvchi asosiy rol o'ynaydi va natijada butun jamiyat kelajagiga hissa qo'shadi.

Eng asosiysi, kelajak o'qituvchisining vazifasi dunyoni o'zidan keyin yaxshiroq qilishga qodir avlodni voyaga yetkazishdir. Buning uchun u zamonaviy pedagogik texnologiyalarni mukammal bilishi, eng muhimi, o'zi ham yuksak insoniy fazilatlarga ega bo'lishi kerak bo'lgan dono, mehribon, ilhomlantiruvchi bo'lishi lozim.

Muxtorbek YUSUPOV,
Algebra va matematik analiz kafedrasida katta o'qituvchisi

INKLYUZIV
TA'LIMDA YANGI
QADAM

Inklyuziv ta'lim jamiyat taraqqiyotining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash, ularning imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, oila va jamiyat bilan uyg'un rivojlantirish har bir ta'lim muassasasining ustuvor vazifasiga aylanmoqda. Ana shu ezgu maqsad yo'lida Chirchiq davlat pedagogika universitetining Pedagogika fakulteti Maxsus pedagogika kafedrasida tashabbusi bilan "Mobil inklyuziv kompleks" laboratoriyasi tashkil etilmoqda.

Laboratoriyaning asosiy maqsadi alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarda bilish jarayonlari, hissiy-emotsional holat va kognitiv rivojlanishni erta aniqlash, baholash va rivojlantirish, shuningdek, inklyuziv ta'lim sharoitida psixologik-pedagogik hamda korreksion yordamni tizimli tashkil etishdan iborat.

ZAMONAVIY JIHOZLAR – SIFATLI NATIJA GAROVI

"Mobil inklyuziv kompleks" laboratoriyasi zamonaviy diagnostik va korreksion jihozlar, innovatsion texnologiyalar hamda xalqaro tajribaga asoslangan metodik vositalar bilan jihozlanadi. Ushbu jihozlar orqali bolalarning psixologik, kognitiv va emotsional rivojlanish darajasi aniq va ishonchli baholanadi, korreksion mashg'ulotlar esa samarali va individual yondashuv asosida olib boriladi. Raqamli testlar, interaktiv mashqlar, maxsus ko'rgazmali va sensor vositalar bolalarda o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

BOLALAR MANFAATI – E'TIBOR MARKAZIDA

Laboratoriya bolalar bilan ishlash jarayoni mutaxassislar — psixolog, defektolog, logoped va pedagoglar tomonidan olib boriladi. Har bir bola uchun individual rivojlanish ehtiyojlariga mos korreksion-rivojlantiruvchi dasturlar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi. Eng muhimi, laboratoriya faoliyati ota-onalar bilan uzviy hamkorlikda tashkil etilib, bolaning rivojlanish jarayoni doimiy monitoring ostida olib boriladi.

Laboratoriyaning "mobil" shaklda faoliyat yuritishi uning imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Ta'lim muassasalariga ko'chma xizmat ko'rsatish orqali ko'proq bolalar qamrab olinadi, chekka hududlarda yashovchi bolalar uchun ham sifatli inklyuziv ta'lim xizmatlari yo'lga qo'yiladi.

TO'RT YO'NALISH – TO'RT MUHIM QADAM

Laboratoriya faoliyati IQ va kognitiv faoliyat, diqqat va xotira, hissiy-emotsional rivojlanish, shuningdek, diskalkuliya, disgrafiya va kalligrafiya yo'nalishlari bo'yicha tashkil etiladi. Mazkur yo'nalishlar bolalarning intellektual, emotsional va akademik rivojlanishini kompleks tarzda ta'minlashga xizmat qiladi.

AMALIY TAJRIBA MAKTABI

Laboratoriya tarkibidagi "Logokompleks" bolalarga zamonaviy logopedik jihozlar asosida sifatli yordam ko'rsatish bilan birga, Maxsus pedagogika yo'nalishi talabalari uchun amaliy tajriba maktabi vazifasini bajaradi. Bu yerda talabalar real sharoitda ishlash, innovatsion usullarni o'rganish va pedagogik amaliyot o'tash imkoniyatiga ega bo'ladi.

"Surdokompleks" xonasi esa eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maxsus texnik vositalar bilan jihozlanib, "to'siqsiz muloqot" muhitini yaratishga qaratilgan. U nafaqat bolalar, balki amaliyotdagi maxsus pedagoglar, magistrantlar va doktorantlar uchun ham ilmiy-amaliy markaz sifatida xizmat qiladi.

SHAHAR AHOLISI UCHUN OCHIQ XIZMAT

E'tiborlisi, laboratoriya faoliyati faqat universitet doirasida emas, balki Chirchiq shahri aholisi uchun ham zamonaviy diagnostika, korreksion mashg'ulotlar, shuningdek, pullik kasb to'garaklari tashkil etilib, kurs yakunida sertifikatlar taqdim etiladi.

"Mobil inklyuziv kompleks" laboratoriyasining ochilishi – Chirchiq davlat pedagogika universitetining jamiyat oldidagi mas'uliyati, inson qadriga bo'lgan yuksak e'tibori va inklyuziv ta'limni rivojlantirish yo'lidagi amaliy qadami hisoblanadi. Zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan ushbu laboratoriya bolalar uchun umid, ota-onalar uchun ishonch, mutaxassislar uchun esa tajriba va ilmiy izlanish maydoniga aylanishi shubhasiz.

Ozoda ISHMATOVA,

Maxsus pedagogika kafedrasida katta o'qituvchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

GOLOGRAFIK

Yangi loyiha

VIRTUAL

O'QITUVCHI

Axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt hayotimizning barcha sohalariga chuqur kirib kelmoqda

Ta'lim tizimi ham bundan mustasno emas. Ayniqsa, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, raqamli texnologiyalar va fanlar integratsiyasi asosida yaratilayotgan innovatsion ishlanmalar ta'lim sifatini tubdan o'zgartirishga xizmat qilmoqda. Ana shunday loyihalardan biri sifatida Chirchiq davlat pedagogika universitetida yaratilgan "Golografik o'qituvchi" dasturini alohida ta'kidlashni istardim.

Ushbu dastur universitetning Axborot texnologiyalari va Sun'iy intellekt kafedrasida o'qituvchilari bilan hamkorlikda ishlab

chiqildi. Loyiha jamoaviy ilmiy-texnik izlanishlar natijasi bo'lib, unda zamonaviy pedagogika, texnologiya va sun'iy intellekt imkoniyatlari uyg'unlashtirildi.

Bundan asosiy maqsad – ta'lim jarayonida inson omiliga yordamchi bo'la oladigan, interaktiv va intellektual virtual o'qituvchini yaratishdir.

Loyiha fanlar integratsiyasi asosida ishlab chiqildi. Jumladan, fizika, matematika va axborot texnologiyalari fanlari o'zaro uzviy bog'langan holda qo'llanildi. Fizika fani orqali yorug'lik sinishi, interferensiya va difraksiya kabi golografik tasvir hosil qilish qonuniyatlari o'rganildi. Matematika fani yordamida uch o'lchamli modellash, koordinatalar tizimi va algoritmik hisob-kitoblarni amalga oshirildi. Axborot texnologiyalari esa ushbu nazariy bilimlarni amaliy dasturiy mahsulotga aylantirish imkonini berdi.

Fanlar integratsiyasi natijasida gologramma texnologiyasi asosida 3D tasvir hosil qilindi va shu tasvir orqali o'qituvchi grafik modeli shakllantirildi. Natijada real insonga yaqin, harakatlana oladigan, muloqotga kirisha oladigan Golografik (Virtual) o'qituvchi yaratildi. Bu virtual o'qituvchi nafaqat ko'rgazmali vosita, balki to'liq funksional axborot manbai sifatida faoliyat yuritadi.

Virtual o'qituvchining vazifalari juda keng. Eng avvalo, u universitet haqida barcha savollarga javob bera oladi. Talabalar, abituriyentlar yoki mehmonlar universitet tuzilmasi, fakultetlar, yo'nalishlar, qabul jarayonlari haqida tezkor va aniq ma'lumot olishlari mumkin. Bundan tashqari, dasturda fanlar bo'yicha maxsus ma'lumotlar bazasi shakllantirilgan. Virtual o'qituvchi fizika, matematika, axborot texnologiyalari va boshqa fanlar bo'yicha turli savollarga javob bera oladi, tushunchalarni izohlab beradi, misollar keltiradi.

Eng muhimi, ushbu loyiha mening ilmiy PhD ishim bilan bevosita bog'liq. Hozirda men "Bo'lajak o'qituvchilarni



VR va AR texnologiyasi yordamida tayyorlashni takomillashtirish metodikasi" mavzusida ilmiy dissertatsiya ustida ish olib bormoqdaman. Golografik o'qituvchi loyihasi ushbu ilmiy tadqiqotning amaliy asosini tashkil etadi. Ya'ni, loyiha faqat texnologik yangilik emas, balki ilmiy-metodik jihatdan ham puxta asoslangan.

Ilmiy ishim doirasida yana bir muhim yo'nalish – virtual talabalar bilan ishlash muhiti yaratildi. Bu muhitda bo'lajak o'qituvchilar virtual talabalar oldida dars o'tishadi. Dasturda turli real hayotga yaqin simulyatsion vaziyatlar yaratilgan. Masalan, darsga e'tibor bermayotgan talaba, savol berayotgan faol o'quvchi, bahsli vaziyatlar yoki intizom muammolari kabi holatlar sun'iy ravishda modellashirilgan.

Bo'lajak o'qituvchilar ana shu virtual muhitda o'zini sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ular turli vaziyatlarda qanday munosabat bildirish, qaysi pedagogik usulni qo'llash, qanday qilib to'g'ri qaror qabul qilishni amaliy ravishda o'rganishadi. Eng muhimi, bu jarayonda xatolardan qo'rqish shart emas, chunki virtual muhit xatolarni tahlil qilish va ulardan saboq olish imkonini beradi. Natijada bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahorati, muloqot madaniyati va kasbiy kompetensiyasi shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, Golografik o'qituvchi loyihasi ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarning yorqin namunasidir. U fanlar integratsiyasi, golografik texnologiyalar, sun'iy intellekt va virtual reallik imkoniyatlarini birlashtirgan holda, ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ishonchim komilki, kelajakda bunday virtual o'qituvchilar ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanadi va zamonaviy pedagoglarni tayyorlashda muhim rol o'ynaydi.

Doniyor IBADULLAYEV,
Axborot texnologiyalari va sun'iy
intellekt kafedrasida katta o'qituvchisi

Ta'lim tizimi oldida turgan eng katta savollardan biri shuki: nega ayrim talabalar tez o'zlashtiradi, boshqalari esa qiynaladi? Nega bilim bor, ammo natija past? Nega charchoq, stress va befarqlik tobora ko'paymoqda?

Bu savollarga faqat darslik yoki an'anaviy suhbatlar bilan javob topib bo'lmaydi. Zamonaviy jamiyat inson psixikasini aniq o'lchash, chuqur tahlil qilish va ilmiy asosda tushunishni talab qilmoqda.

Shu ehtiyojdan kelib chiqib, Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti Psixologiya kafedrasida "Psixokognitiv – digital" laboratoriyasini tashkil etish tashabbusi ilgari surildi.

Bu laboratoriya – oddiy xona yoki jihozlar majmuasi emas. Bu – inson ongini, hissiyatini va fikrlash jarayonini ilmiy muhitda o'rganish imkonini beradigan zamonaviy makon.

PSIXOLOGIYA ENDI LABORATORIYADA SHAKLLANADI

NAZARIYADAN AMALIYOTGA YO'L

Ko'p yillar davomida psixologiyaga ko'proq nazariy fan sifatida qaralib kelindi. Ammo bugun bu yondashuv yetarli emas. Talaba psixologiyani nafaqat bilishi, balki tekshirishi, tahlil qilishi va xulosa chiqarishi kerak.

Yangi tashkil etilayotgan laboratoriya aynan shu bo'shliqni to'ldiradi. U orqali talabalar diqqat, xotira, stress, hissiy holat, charchash darajasi kabi ko'rsatkichlarni real tajribalar asosida o'rganadi. Bu esa ta'lim sifatini oshirish bilan birga, kelajak psixologining kasbiy tayyorgarligini mustahkamlaydi.

BESH YO'NALISH – BITTA MAQSAD

Bugungi kunda insonning ruhiy holatini faqat suhbat asosida baholash yetarli emas. Ba'zan talaba "yaxshiman" deydi, ammo uning diqqat darajasi pasaygan, charchoq yuqori, stress esa me'yorida oshgan bo'ladi. Tezkor psixologik diagnostika yo'nalishi ana shu yashirin holatlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Bu yo'nalishda inson organizmidagi psixofiziologik o'zgarishlar – yurak urishi, teri reaksiyasi, diqqat barqarorligi kabi ko'rsatkichlar ilmiy usullar orqali baholanadi. Natijada psixolog xulosasi taxmin emas, balki aniq ma'lumotlarga asoslanadi. Bu esa ta'lim jarayonida individual yondashuvni kuchaytiradi va noto'g'ri baholashlarning oldini oladi.

Ba'zi psixologik holatlarni oddiy sharoitda kuzatib bo'lmaydi. Masalan, stressli vaziyatda inson qanday qaror qabul qiladi? Jamoa oldida chiqish paytida uning hissiy holati qanday o'zgaradi? Virtual muhitga asoslangan yo'nalish ana shunday vaziyatlarni sun'iy, ammo realga yaqin sharoitda yaratish imkonini beradi.

Bu yo'nalishda talabalar va tadqiqotchilar inson xulq-atvorini turli sharoitlarda kuzatadi, tahlil qiladi va xulosalar chiqaradi. Eng muhimi, bunday tajribalar xavfsiz va nazorat qilinadigan muhitda o'tkaziladi. Bu esa psixologik tadqiqotlarda yangi ufqlarni ochadi.

YANGI YONDASHUV

Zamonaviy psixologiyada muammolar alohida holat emas, balki tizimli jarayon sifatida qaralmoqda. Shu sababli uchinchi yo'nalish katta hajmdagi psixologik ma'lumotlarni tahlil qilishga qaratilgan.

Bu yerda o'quvchilar va talabalar psixologik ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashni, umumiy tendensiyalarni ko'rishni va ilmiy xulosalar chiqarishni o'rganadi. Masalan, stress va o'quv samaradorligi o'rtasidagi munosabat yoki charchoqning



xotiraga ta'siri shu asosda tahlil qilinadi. Bu yo'nalish psixologiyani aniq fanlar qatoriga yaqinlashtiradi.

Bugungi tezkor hayot sharoitida ruhiy barqarorlik eng muhim masalalardan biriga aylandi. Psixoemotsional yo'nalish insonning hissiy holati, moslashuv darajasi va ichki barqarorligini aniqlashga xizmat qiladi.

Bu yo'nalish orqali stressning dastlabki belgilari erta aniqlanadi, muammolar chuqurlashib ketishidan oldin profilaktik choralar ko'riladi. Natijada nafaqat o'quv samaradorligi oshadi, balki insonning umumiy hayot sifati ham yaxshilanadi. Bu yo'nalish psixologiyaning eng insonparvar yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Inson qanday fikrlaydi? Qarorni qanday qabul qiladi? Nima sababdan ba'zi odamlar tez tahlil qiladi, boshqalari esa sekin? Beshinchi yo'nalish aynan shu savollarga javob topishga qaratilgan.

Bu yo'nalishda diqqat, xotira, tafakkur va qaror qabul qilish jarayonlari maxsus tajribalar orqali o'rganiladi. Talabalar faqat nazariy bilim emas, balki real tajribalar orqali inson tafakkurining murakkab mexanizmlarini anglaydi. Bu esa kelajakda ta'lim, kadrlar tanlash va psixologik maslahatlarda katta ahamiyat kasb etadi.

BUGUN ZARUR, ERTAGA KECH BO'LISHI MUMKIN

Bugungi kunda stress, kasbiy charchash, motivatsiya pasayishi nafaqat talabalarda, balki o'qituvchilarda ham uchramoqda. Bularni vaqtida aniqlamaslik jiddiy muammolarga olib kelishi mumkin. Shu sababli bunday laboratoriyani tashkil etish – kelajak rejasi emas, bugungi kunning zaruratidir.

"Psixokognitiv – digital" laboratoriyasi orqali nafaqat mutaxassislar tayyorlanadi, balki ta'lim tizimida inson omiliga bo'lgan munosabat tubdan o'zgaradi. Endi talaba shunchaki baho emas, balki shaxs sifatida o'rganiladi.

Zamonaviy psixologiya auditoriyada emas, laboratoriyada shakllanadi. Insonni tushunish uchun uni eshitishning o'zi yetarli emas – uni ilmiy asosda o'rganish kerak. Chirchiq davlat pedagogika universitetida yo'lga qo'yilayotgan ushbu tashabbus aynan shu maqsadga xizmat qiladi.

Bu laboratoriya – kelajak psixologlari uchun poydevor, jamiyat uchun esa sog'lom tafakkur sari tashlangan muhim qadamdir.

Nortoqi ESHNAYEV,
Psixologiya kafedrasida mudiri,
Falsafa fanlari nomzodi, dotsent

*Ushbu qo'shsahifa Chirchiq davlat
pedagogika universitetining
Axborot xizmati tomonidan
tayyorlandi.*